

**TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARI TA'LIMIDA
MATEMATIK O'YIN TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

M.B.Ro'zmatova

UrDPI magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola bolalarga ilk yoshlardan boshlab ta'lim-tarbiya berishda matematik o'yinlardan foydalangan holda o'rgatish jarayoni haqida so'z yuritadi. Uning foydali jihatlari, o'rgatish usullarini bayon qiladi. Shuningdek, matematik o'yin texnologiyalarini qo'llashni bir necha usullarini tahlil qilib, bir necha xil o'yinlarga misollar keltiriladi.*

Matematik o'yinlardan foydalanish bolalar tafakkuriga ijobiy ta'sir qilishi keng yoritiladi. Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkillashtirilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda unda bilim olishga, atrofdagi olamning sirlarini kashf etishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerakligi ta'kidlanadi.

O'yin texnologiyasi an'anaviy ta'limda mavjud bo'lgan o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi va amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilab qo'yilgan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Shuningdek, har tamonlama samarali va qulay bo'lgan o'yin texnologiyalari Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta va tayyorlov guruhlarida to'g'ri tanlangan holda ta'lim-tarbiya jaryonini to'g'ri tashkil qilinishi, o'tkazilishi va tugallanishining kafolatidir. Shu sababli ham uzluksiz ta'limning ilk pag'onasi bo'lgan Maktabgacha ta'lim tizimida turli xil o'yin texnologiyalari, matematik o'yinlar, interfaol metodlar hamda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalangan holda ta'limni tashkil qilish keng tus olmoqda.

Kalit soʻzlar: Oʻyin, qoida, faoliyat, intellektual salohiyat, matematik fikr yuritish, ragʻbatlantirish, tafakkur, metod .

Abstract: This article talks about the process of teaching children from early childhood using mathematical games. It describes its useful aspects and teaching methods.

Also, several methods of applying mathematical game technologies are analyzed and examples of several different games are given. It is widely reported that the use of mathematical games has a positive effect on children's thinking.

From the pedagogical point of view, along with moral and volitional transport, the web is organized as an exercise in gaining knowledge and investigating the secrets of the surrounding world. For this, it is emphasized that preschool educational institutions need extensive support from game technologies. Game technology differs from the game method, which is the subject of traditional education, with its clear purpose and the logical sequence, operation and interdependence of the processes to be implemented, predetermined in advance. differs with accounting guarantee.

Also, game technologies that are effective and convenient in every way are a guarantee of the correct organization, conduct and completion of the educational process in large and preparatory groups of preschool educational organizations. For this reason, the organization of education using various game technologies, mathematical games, interactive methods and modern educational tools is becoming widespread in the preschool education system, which is the first stage of continuous education.

Key words: Game, rule, activity, intellectual potential, mathematical thinking, motivation, thinking, method.

Аннотация: В данной статье рассказывается о процессе обучения детей с раннего детства с помощью математических игр. Описаны его полезные аспекты и методы обучения.

Также анализируются несколько способов применения математических игровых технологий и приводятся примеры нескольких различных игр.

Широко известно, что использование математических игр положительно влияет на мышление детей.

С педагогической точки зрения, наряду с морально-волевым транспортом, Сеть организована как упражнение по получению знаний и исследованию тайн окружающего мира. Для этого подчеркивается, что дошкольные образовательные учреждения нуждаются в широкой поддержке игровых технологий. Игровая технология отличается от игрового метода, являющегося предметом традиционного образования, своей четкой целью и заранее определенной логической последовательностью, действием и взаимозависимостью реализуемых процессов.

Также эффективные и удобные во всех отношениях игровые технологии являются залогом правильной организации, проведения и завершения образовательного процесса в больших и подготовительных группах дошкольных образовательных организаций. По этой причине в системе дошкольного образования, являющегося первым этапом непрерывного образования, получает распространение организация обучения с использованием различных игровых технологий, математических игр, интерактивных методов и современных образовательных средств.

Ключевые слова: *Игра, правило, деятельность, интеллектуальный потенциал, математическое мышление, мотивация, мышление, метод.*

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar to'rt guruhga bo'lingan holda tarbiyalanadilar, ya'ni: kichik guruhlar, o'rta guruhlar, katta guruhlar va tayyorlov guruhlar. Olib borilayotgan faoliyatlarning mazmuni ularning yoshiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etiladi. Maktabgacha yosh davri bolalarning rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi, bu davrda ularning fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, hissiy ma'naviy, axloqiy, aqliy jihatdan rivojlanishini kuzatishimiz mumkin va shu bilan birgalikda ularda insonlarga mehr oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi bir qator insoniy fazilatlarni shakllantirish va tarbiyalashga zamin yaratiladi. Shu boisdan

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mazkur maqsadlarga ko'ra qator tizimli ishlarni olib borilishi, shu jumladan, turli didaktik o'yinlar texnologiyalaridan foydalanish va shu kabi matematik o'yin texnologiyalari vositalari orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ruhan tetik qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy vazifalaridan biridir. Bola hayotining asosiy qismini o'yin bilan o'tkazadi. K.D.Ushinskiy, "Bola uchun o'yin-

Voqelik-deb ta'kidlagan edi. Binobarin, tevarak atrofdagi voqeliklardan ko'ra ancha qiziqroq voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarli, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa, qonun-qoida, hodisalar mavjud"¹.

Matematik o'yin texnologiyalari yordamida bolalarning faoliyati mustahkamlanishi bilan birga har xil shakllar, geometrik figuralar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlari shakllanib borishini kuzatamiz. Umuman olganda o'yinlar orqali bolalar faoliyati mustahkamlanadi, hayot haqidagi ilk tasavvurlari, jonli va jonsiz tabiat to'g'risidagi o'y-fikrlarni, turli buyum predmetlarning ko'rinishi, nomi, rangi, shakli, tuzilishi, o'simlik va hayvonot olamidagi rang-baranglikni angelaydilar. O'yin maboynida bolalar turli qiyinchiliklarga duch keladilar, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilib o'rganib boradilar. Shuningdek yana muhim tamonlaridan biri ahillik, jamoaviy tarzda harakatlanishni, o'zaro xurmat munosabatlarini shakllantiradilar. O'yin qadim zamonlardan mavjud bo'lgan va u ko'pgina pedagoglar, psixologlar, olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq vujudga kelgan bo'lib, jamiyatning hayotida mehnatdan keyiningi o'rinda turishi va uning mazmunini belgilashi bizga ma'lum. Bugungi kunda o'yinlarning turli-tuman turlari mavjud bo'lib: matematik o'yinlar milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari; so'z o'yini; qo'g'irchoq o'yini; ma'naviy- ma'rifiy o'yinlar; intellektual o'yinlar; o'ylab top o'yinlari; zamonaviy texnika va komputer o'yinlari shular

¹ Konstantinov N.A., Medinskiy E.N., Shabaeva M.F. Pedagogika tarixi. M., 1982 yil

sirasiga kiradi . Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xilligini va uni quyidagi turkumlarga ajralishi bilan tanishishimiz mumkin:

1)Ijodiy o'yinlar.

2)Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar bolalar tomonidan ixtiro etiladi. Bunda ilgari belgilangan qoidalar bo'lmaydi, o'yin qoidasini bolalarning o'zlari o'yin jarayonida belgilab olishadi.

Ijodiy o'yinlarga drammalashgan o'yinlar, qurilish o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan kabi o'yinlar kiradi. Tabiiy materiallarning nomlanishi jarayonida geometrik figuralar va arifmetik hisob to'g'risidagi tushunchalarni aytilishi natijasida bolalarda dastlabki elementar matematik tasavvurlar shakllantiriladi va bu ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va juda samarali. Shu sababdan ham ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu davr maboynida bolalar olgan bilimlarini mustahkamlashadi va vaqtini hush o'tkazishadi.

Qoidali o'yinlarning mazmunini va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar. Didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Matematik o'yinlar ham didaktik o'yinlar kabi ta'lim bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lib unga yordam beradi. Bunday o'yinlar kichik bolalar uchun "rangiga qarab top", "Shakliga qarab top", va katta guruh bolalari uchun "Kim ko'proq narsani nomini ayta oladi", "Qarab ol-u, eslab qol", "Nimaning shakli tasvirlangan" kabi o'yinlarni aytish mumkin. O'yinda qatnashgan bolalarni maqtash, rag'batlantirish mumkin. Didaktik o'yinning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda tarbiyachi bilan bolalarning munosabati bevosita o'yin tarzida kechadi. Bunda tarbiyachi shu o'yin qatnashchisi yoki tashkilotchisi bo'lishini kuzatishimiz mumkin. O'yinlar bolalardagi kuzatuvchanlik, mashq qilish kabi nutqlarini ravon qilish, elementar matematik tushunchalarni shakllanitirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi matematik o'yinni tashkil qilib o'tkazib

bo'lgandan so'ng yakunida bolalarni qiziqtirgan holatda tugallashi lozim, ya'ni bolalar shu o'yinni yana davom ettirish istagini bildirsinlar. Bolalar birdaniga tushunchalar vositasida o'ylamaydilar. Ularning tafakkuri ma'lum yoshgacha aniq holda tasavvurlar yordamida vujudga keladi. Tushunchani tarkib toptirishda shunga erishish kerakki, tushunchani bir xil miqdorlarning barcha muhim bo'lmagan xossalarini tashlab turib, ularning asosiy xossalarini va belgilarini umumlashtirishini bolalar yaxshi tushunib olishsin. Masalan: "Uchburchak" tushunchasi- uchta burchagi va kesmalardan iborat uchta tomoni mavjud predmetni umumlashtiradi. Inson tafakkuri nutq bilan, til bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni fikr yuritishning vujudga kelishi va rivojlanishi ularning matematik bilimi bilan o'lchanadi. Ushbu jarayonda matematik o'yin texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabga tayyorlov va shu bilan bir qatorda kichik, o'rta va katta guruhlarda matematik o'yinlar va o'yin texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat tashkil qilish, ushbu jarayonni bolalar tomonidan ajoyib va to'la to'kis, mukammal holda ilg'ab olishlariga imkon yaratadi. Bundan tashqari bu jarayonda tarbiyachi pedagog va guruhdagi bolalar o'rtasidagi munosabatlar ijobiy tus oladi, har bir bola o'zini erkin his qilgan holda tushuna olmay qolgan bilimlarini so'rab o'rganib, mustahkamlab olishi uchun imkoniyat yaratilgan vaziyat hisoblanadi. Shuningdek, o'yin orqali o'rganish, eng qiziqarli va hayajonli faoliyat bo'lib, bunda tarbiyalanuvchilarning qiziqish va ishtiyoqni kichikdan bosqichma-bosqich kattaga o'tkazishga hissa qo'shadi va o'quv faoliyati uchun o'yin juda samarali vosita sanaladi. Faoliyat davomida ozgina miqdorda bo'lsa ham diqqati tarqoq bolalarini e'tiborini ushbu jarayonga qaytarish va ularni ham guruhdagi boshqa bolalar qatori faoliyatga jalb qilish uchun bizga kerakli vosita bu o'yindir. Bolalarni o'ziga jalb qiladigan qiziqarli va keskin ijobiy tus oladigan o'yin, ularga og'irlik tug'durmaydi, na aqliy, na jismonan ortiqcha qiyinchilik yuklamagan hisoblanadi. Bolalarning qiziqishi aniq o'yin asta-sekin nafaqat o'rganishga bo'lgan qiziqishga, balki haqiqatga ham aylanadi va tarbiyachi-pedagog o'rgatmoqchi bo'lgan faoliyatdagi bilim, malaka, ko'nikmalar bolalar tomonidan o'zlashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida faoliyatlardan keyin o'yinlar va mashg'ulotni mustahkomlovchi vositalar juda zarurdir. Sababi katta va tayyorlov guruhiga kelib bolalar uchun beriladigan bilimlarning hajmi kattayadi, davomiylik va davriyligi ham ma'lum manoda oshadi. Tarbiyachi tamonidan beriladigan har bir bilim, malaka, ko'nikmalar faoliyat so'ngida turli xil qiziqarli o'yin va interfaol metodlardan foydalanilgan holda takrorlansa va mustahkamlansa bolalar yana ilmga chanqoq holda bilim olishda davom etishadi va maktab ta'limiga tayyorlik yil o'quv yili oxiriga borib seziladi. Bolalarga o'rgatilgan bilim na faqat keying faoliyatlarda, balki ularning kelgusi ilm yo'llaridagi qadamlarida ham asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Komenskiy Ya.A. "Ajoyib didaktika". M., 1955 yil
2. Konstantinov N.A., Medinskiy E.N., Shabaeva M.F." Pedagogika tarixi ". M., 1982 yil
3. Lordkipanidze D.O. Yan Amos Komensiy, tahr. 2,"M, Pedagogika ", 1970 yil
4. Nipkov K.E. "Yan Komensiy bugun" "Glagol", Sankt-Peterburg 1995 yil
5. Piskunov A.I. "Chet el pedagogikasi tarixi bo'yicha kitobxon". - M.: Ta'lim, 1981.